

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI**



Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

REANIMATSIYA VA INTENSIV TERAPIYADA HAMSHIRALIK ISHI
(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlari uchun)

O'QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent-2025 yil

TUZUVCHILAR:

I.A.Mamatkulov

Tosh PMI "Reanimatsiya va intensiv terapiya" bo'lim mudiri

I.A.Maxmudova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

A.B.Beknazarov

Tosh PMI "Reanimatsiya va intensiv terapiya" bo'lim mudiri

Z.Z.Imamova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 1 » 03

2/1 - sonli bayonnoma

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 5 » 03

2 - sonli bayonnoma

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. . O'quv dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Reanimatsiya va intensiv terapiyada hamshiralik ishi" o'quv dasturi o'quv reja asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 soat malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. O'quv dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish moduli fanlari hamda mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida hamshiralarning mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi kompetensiyalarni egallash va mavjud malaka doirasida ularning kasbiy darajasini oshirish. Reanimatsiya bo'limi hamshiralarni har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini ko'tarish, aholi o'rtasida salomatlik ko'rsatkichlarini yanada oshirish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan

profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;

- amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni hamshiralarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini mukamallashtirish;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, zamonaviy reabilitatsiya usullari, ularda bemorlarni parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, aholini tibbiy ko'riklaridan o'tkazish, biriktirilgan aholi guruhlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish;
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda davolash, inson hayotiga xavf soluvchi holatlarni kamaytirish, tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumotlar berish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha davolash profilaktika muassasalari reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan hamshiralalar uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlarni mohiyatini bilishi va ularni o'z kasbiy amaliyotiga qo'llay olishi;
- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda akusherlik faoliyatini amalga oshirish;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, satinar-gigiyenik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- hamshiraning huquqiy ma'suliyatlari, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni o'rganish va baholash;
- reanimatsiya bosqichlarini, yo'nalishlarini bilishi;
- reanimatsiya yordami rejalarini tuzish;
- og'ir ahvoldagi bemorlarga reanimatsiya yordami rejalarini tuzish, parvarish olib borish va ahvolini baholash;

- og‘ir ahvoldagi bemorlarga reanimatsiya yordamini tashkil etishdagi meyoriy hujjatlarni bilishi;
- og‘ir ahvoldagi bemorlarga reanimatsiya yordamini tashkil etishdagi meyoriy hujjatlarni yuritishni bilishi;
- mutaxassisligi bo‘yicha to‘liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan, uzluksiz o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarini bilishi va rioya qilishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Sog‘liqni saqlash tizimining butun dunyo bo‘yicha rivojlanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hamshiralar sog‘liqni saqlashni muassasalarida to‘liq mustaqil ishlay olishi va kasbiy faoliyat davomida malakasining oshib borilishi, bemorlarga ish joyi va egallagan lavozimiga mos bo‘lgan kerakli malakali yordamni ko‘rsata oladigan imkoniyatda bo‘lishi lozim. Hozirgi zamon tibbiyotidagi keskin va jadal taraqqiyot reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limlari hamshiralaridan puxta nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini, o‘z kasb mahoratlarini va malakasini doimiy ravishda oshirib borishni, ko‘rsatiladigan yordam sifat va samarasining zamon talablari darajasida bo‘lishini taqozo etadi.

O‘quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo‘llash, shuningdek tibbiyot huquqi bo‘yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o‘zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit haftada, 36 kredit).

1.7. O‘qish shakli:

- kunduzgi - o‘qish ishdan ajralgan holda.
- on/offline, masofaviy –an’anaviy o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda.

1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi: Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidolari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg‘ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo‘ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so‘ng: o‘quv kursni to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Reanimatsiya va intensiv terapiyada hamshiralik ishi” bo‘yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA‘LIM NATIJALARI.

2.1. Rejalashtirilayotgan ta‘lim natijalaridan so‘ng takomillash- tirilishi (yangilanishi) lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;

- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va ularning qarindoshlari bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi mukammallashadi;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish va amalga oshirish qobiliyati yaxshilanadi;
- shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati oshadi;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalari oshadi;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasblar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish ko'nikmalari mukammallashadi;
- o'z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-huquqiy meyorlarga ko'ra yuritish, konfidensial ma'lumotlar bilan ishlashda tibbiyot etikasi, qonunlar, meyoriy-huquqiy talablarga rioya qilish, tibbiyot sirini saqlash qobiliyati oshadi;
- hamshiralik ishi faoliyati doirasida profilaktik va davolash-diagnostik muolajalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshira olish ko'nikmalari yaxshilanadi;
- yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta'minlaydi;
- o'rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni sifatli yurita olish qobiliyati oshadi;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmalari rivojlanadi;
- bemorlarni o'zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish qobiliyati yangilanadi;
- shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhishlash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o'rnatilgan tartibda hujjatlashtirish ko'nikmalari takomillashadi;
- shoshilinch xolatlarda yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy tashxislashga tayyorlash, yordam ko'rsatish, hamshira tashxisi va parvarishi to'g'risida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish vazifalari takomillashadi;
- o'tkir nafas yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishini o'tkazish ko'nikmalari yangilanadi;
- o'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishini o'tkazish ko'nikmalari yangilanadi;
- koma va shok xolatlarida bemorlarning parvarish qilish va kuzatishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalari yangilanadi;
- og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi bo'yicha ko'nikmalari yangilanadi;
- terminal holatlarda hamshiralik yordamini ko'rsatish va terminal davridagi bemorlarni parvarish qilish ko'nikmalari mukammallashadi.

3.DASTURNING MAZMUNI:

3.1.” Reanimatsiya va intensiv terapiyada hamshiralik ishi” malaka oshirish kursi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4			
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Infeksion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush asoslari, to‘g‘ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli.	104	44	60		
2.1	Modul: Sog‘liqni saqlash vazirligining reanimatsiya sohasiga oid meyoriy hujjatlari. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limi ish tartibi.	12	4	8		
2.2	Modul: O‘tkir nafas yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishi.	12	6	6		
2.3	Modul: O‘tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishi.	12	6	6		
2.4	Modul: Koma va shok klassifikatsiyasi. Bemorlarni parvarish qilish va kuzatishning o‘ziga xos xususiyatlari.	12	4	8		
2.5	Modul: Ovqat hazm qilish tizimi a‘zolari, jigar kasalliklarining og‘ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi.	12	4	8		
2.6	Modul: Siydik ajratish a‘zolari og‘ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi.	6	2	4		
2.7	Modul: Terminal holatlarda hamshiralik yordamini ko‘rsatish. Terminal davridagi bemorlarni parvarish qilish.	12	6	6		

2.8	Modul: Bolalarda intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko'rsatish xususiyatlari.	20	10	10		
2.9	Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
4.0	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	60	76	4	4

”Reanimatsiya va intensiv terapiyada hamshiralik ishi” malaka oshirish kursi modullar mazmuni.

1.1.Modul.O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to'g'risi”dagi hamda “Tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug'urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog'liq islohotlar. Davlat tibbiy sug'urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug'urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning

oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul. Infeksion nazorat.

Infeksion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalaniish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4.Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar.Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari.Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati,

zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1. Modul:Sog'liqni saqlash vazirligining reanimatsiya sohasiga oid meyoriy hujjatlari. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi ish tartibi.

Sog'liqni saqlash vazirligining reanimatsiya sohasiga oid buyruqlari va meyoriy hujjatlari. O'zbekistonda reanimatologiya xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishi. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi ishini tashkil qilish. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi hamshirasining funksional vazifalari. Tibbiy etika va deontologiya qoidalariga rioya qilish, tibbiyot sirini saqlash. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limidagi meyoriy jihozlar, anjomlar va ularni doimo ishchi xolatida saqlashning ahamiyati. Ishlatilgan dori-darmonlarni xisobini yuritish. Reanimatsiya va intensiv terapiya o'tayotgan bemorning hayotiy muhim ko'rsatkichlarini monitoringini olib borish. Reanimatsion karta, intensiv terapiya kartasini yuritish. Hamshiralik jarayoni uning bosqichlari, bemorlarda turli tekshiruvlarga tayyorlash. Hamshiralik parvarishini amalga oshirish. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limidagi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash.

2.2. Modul. O'tkir nafas yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishi.

O'tkir nafas yetishmovchiligining kelib chiqish sabablari, klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va asoratlarda hamshiralik parvarishini tashkil etish. Nafas olish a'zolariga yot jism tiqilishida o'tkir nafas yetishmovchiligining klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va parvarish qilish. Traxeia intubatsiyasi, kerakli asbob-anjomlar va bemorni tayyorlash, uni bajarish usullari, asoratlari va bemorni parvarishlash. Traxeostomiya va konikotomiyani bajarish uchun kerakli asbob-anjomlarni tayyorlash. O'pkani sun'iy nafas oldirish usullari, asoratlari va ularni bartaraf etish. Bronxial astma kasalligining kelib chiqish sabablari, klinik bosqichlari. Bronxial astma hurujida shoshilinch hamshiralik yordamini ko'rsatish. Astmatik status holatida bemorga tez tibbiy yordam ko'rsatish. O'tkir nafas yetishmovchiliklarida hamshiralik parvarishi rejasini tuzish va uni amalga oshirish, tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalar.

2.3. Modul: O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishi.

O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiliklari, sabablari, turlari. O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligini klinik kechishi, qiyosiy tashxisi, intensiv davolashning asosiy usullari. O'tkir qon tomirlar yetishmovchiligi, turlari, sabablari, belgilari, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlari va hamshiralik parvarishi. O'tkir yurak yetishmovchiliklari, sabablari, turlari. Yurakning ishemik kasalliklari: stenokardiya, miokard infarkti, kardioskleroz. Stenokardiya, sabablari, klinikasi, stenokardiya hurujida yordam ko'rsatish. O'tkir miokard infarktining kelib chiqish sabablari, turlari, klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va asoratlarda hamshiralik parvarishini tashkil etish. Gipertonik kriz

sabablari,turlari, klinik kechishi, birinchi yordam ko'rsatish va bemorlar holatini baholash. O'tkir septik endokardit, yarim septik endokardit, yurak nuqsonlari, miokardit, yuzaga keltiruvchi sabablari, kasallik belgilari, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va hamshira parvarishi. Kasalliklarning asoratlarini oldini olish. O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida intensiv davolash tadbirlarilarini olib borish.

2.4. Modul. Koma va shok klassifikatsiyasi. Bemorlarni parvarish qilish va kuzatishning o'ziga xos xususiyatlari.

Koma turlari,sabablari,klinikasi. Komadagi bemorlarni parvarish qilish va kuzatishning o'ziga xos xususiyatlari. Koma holatidagi bemorlarni fizikal tekshirish va zamonaviy tekshirish usullari. Komaga tushgan bemorlarning holatini baholash Hayotiy muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish va monitoringini olib borish. Kechiktirib bo'lmaydigan yordam ko'rsatish. Koma holatidagi bemorlarni parvarish qilish.Fiziologik ehtiyojlarni qondirishda yordam berish (ovqatlantirish, hojat chiqarish, shaxsiy gigiyena). Bemor oila a'zolariga ruhiy yordam berish.Shok va uning turlari. Shok holatigaga tushgan bemorlarni parvarish qilish va kuzatishning o'ziga xos xususiyatlari. Shok holatidagi bemorlarning holatini baholash. Shok omillarini bartaraf qilish. Hayot uchun muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish. Fiziologik ehtiyojlarni qondirishda yordam berish (ovqatlanish, hojat chiqarish, shaxsiy gigiyena). Bemor oila azolariga ruhiy yordam berish, bemorlarga tez tibbiy yordam ko'rsatish va parvarishlash.Shok holatidagi bemorlarni fizikal tekshirish. Shokda bemorlarda hamshiralik parvarishi. Shok holatidagi bemorlarga kasalliklar asoratlarini oldini olish.Miyada qon aylanishini o'tkir buzilishi, kelib chiqish sabablari, asoratlarni oldini olish, bemorlarni parvarishlash.

2.5.Modul. Ovqat hazm qilish tizimi a'zolari, jigar kasalliklarining og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi.

Ovqat hazm qilish, jigar kasalliklarini zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Ovqat hazm qilish, jigar a'zolari kasalliklarini oldini olish, bemorlar orasida uning asoratlari rivojlanishini kamaytirish chora-tadbirlari. Ovqat hazm qilish a'zolari va jigarni o'tkir rivojlanayotgan kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda kritik holatlar va patologik sindromlarda hamshiralik parvarishi va reanimatsion chora tadbirlar. O'tkir va surunkali gastritlar. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish, davolash usullari,bemorlarni parvarishlash, kasallikni xuruji va asoratlarini oldini olish, parhez taomlar bilan davolash bo'yicha tavsiyalar berish. Yara kasalliklari, kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, belgilari, asoratlari va ularda tez tibbiy yordam berish. Bemorlarni rentgenologik va endoskopik tekshiruvga tayyorlash. Kasallik asoratlarini oldini olish, asoratlar yuz berganda tez tibbiy yordam ko'rsatish. parhezning ahamiyatini tushuntirish. Ichak kasalliklari. Gijjalar, ularning turlari, yuqish yo'llari, kasallikni belgilarini aniqlash va zamonaviy davolash, kasallikni keng tarqalishini oldini olish. O'tkir va surunkali enteritlar va kolitlar. Ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, hamshira parvarishini tashkil qilish. O'tkir jigar yetishmovchiligi, jigar sirrozi va gepatitlarda hamshiralik yordami va parvarishi. O'tkir va surunkali jigar kasalliklari. O'tkir gepatit, uning kelib chiqishi belgilari, parvarishlash va oldini olish. Surunkali gepatit va jigar sirrozi.

Uning kelib chiqishi, rivojlanishi va belgilari, hamshira tashxisi zamonaviy davolash usullariga tayyorlash, parvarishlash usullari. O't qopi, o't yo'llari va me'da osti bezi kasalliklari. O'tkir va surunkali xoletsistitlar hamda pankreatitlar. Ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va belgilari va ovqatlantirish. Bemorni turli tekshirish usullariga tayyorlash. Xoletsistektomiyadan so'ng bemorning holati va parvarishlash. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Ovqat hazm qilish a'zolari, jigar kasalliklarini parvarishlashda hamshira yuritadigan hujjatlar.

2.6. Modul. Siydik ajratish a'zolari og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi.

Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini oldini olish, bemorlar orasida uning asoratlari rivojlanishini kamaytirish tadbirlarni qo'llash. Siydik ajratish a'zolari o'tkir rivojlanayotgan kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda kritik holatlar va patologik sindromlarda hamshiralik parvarishi va reanimatsion chora tadbirlar. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish va davolash usullari. O'tkir va surunkali glomerulonefritlar, ularning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi va belgilari, bemorlarni davolash, parvarishlash. O'tkir va surunkali glomerulonefritlar bilan og'rigan bemorlarni kun tartibi, parhez taomlari, suv-tuzlarni qabul qilish meyorlari. O'tkir va surunkali piyelonefritlarni kelib chiqishi, belgilari, hamshira tashxisi, parvarishlash, bemorni kun tartibi, parhez taomlari. Buyrak toshi kasalligi, sabablari, uning rivojlanishi, belgilari. Buyrak sanchiq xuruji, klinikasi, kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatish, bemorni parvarish qilish. Toshlar paydo bo'lishini oldini olish uchun bemorga parhez bo'yicha tavsiyalar berishning ahamiyati. Sun'iy buyrak yoki a'zolari ko'chirib o'tkazish, buyrak yetishmovchiligini davolashda hamshiraning o'rni. Siydik ajratish a'zolari og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi. Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini parvarishlashda hamshira yuritadigan hujjatlar

2.7. Modul. Terminal holatlarda hamshiralik yordamini ko'rsatish. Terminal davridagi bemorlarni parvarish qilish.

Terminal holat haqida tushuncha. Terminal davrning turli xil kasalliklardagi davomiyligi. Terminal davrda bemorlarni fizikal tekshirish, kasallik belgilarini yengillashtirish, organizm hayotiy muhim ko'rsatkichlari monitoringi. Terminal davrdagi bemorlarga hamshiraning parvarishi. Terminal holatdagi bemorga ko'rsatiladigan ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy parvarish. Agonal oldi, agonal faza, klinik o'lim haqida tushuncha. O'lim konsepsiyasi, unga munosabat. Klinik o'lim belgilari. Yurak to'xtashi turlari va sabablari. Yurak-o'pka reanimatsiyasining umumiy va ixtisoslashtirilgan usullari. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash. Geymlex usuli. Sun'iy nafas berish ("og'izdan-og'izga", "Ambu" qopchasi bilan), bilvosita yurak massajini qilish. Yurak faoliyati tiklangandan so'ng qilinadigan parvarishlar rejasini tuzish. Bemor parvarishida hamshiralik ishining ahamiyati. Bemor bilan kommunikatsiya qoidalari. Og'riqqa baho berish, bemorni umumiy ahvoliga baho berish, hayotiy muhim ko'rsatkichlarni aniqlash va monitoringini olib borish. Terminal davrdagi bemorlarga yetarli darajada malakali parvarishni amalga oshirishning

ahamiyati. Bemorlarga palliativ yordam ko'rsatish. Bemor va uning yaqinlari bilan muloqotda bo'lganda etika va deontologiya masalalari.

2.8. Modul: Bolalarda intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko'rsatish xususiyatlari. Bolalarda operatsiyadan keyingi og'riqsizlantirish. Hamshiralik parvarishini olib borish.

O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chikarilgan mutaxassislikka oid buyruqlari va ular asosida ishlash. Bolalarga reanimatsion yordam ko'rsatish. Bolalar organizmining o'ziga xos xususiyatlari. Bolalarda reanimatsiyaning umumiy qoidalari, uning o'ziga xos tomonlari, apparat va moslamalarni ishga tayyorlash va ishlatish. Bolalar reanimatsiyasi va intensiv terapiya bo'limi hamshirasining lavozimlik burchlari. Reanimatsiya bo'limidagi chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini o'ziga xos xususiyatlari. Reanimatsiya bo'limi chaqaloqlarga birinchi hamshiralik yordami va parvarishini tashkil etish. Bolalarda o'pka – yurak reanimatsiyasini o'tqazish. Reanimatsiya va intensiv terapiya chora - tadbirlaridan keyingi davrda uchraydigan asoratlari va ularning oldini olishda hamshira taktikasi. Bir yoshgacha va bir yoshdan katta bolalarda nafas yo'llarini o'tkazuvchanligi, nafas faoliyati buzilganda shoshilinch yordam ko'rsatish tamoyillari, obstuktiv sindrom, astma, soxta krupda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Chaqaloqlardagi havfli belgilar, perinatal asfiksiyasi bor chaqaloqlarni olib borish. Oksigenoterapiya, suyuqlik muvozanatini saqlab turish. Bolalarda yurak-qon tomir yetishmovchiligida intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko'rsatish xususiyatlari. Bolalarda o'tkir yurak va qon tomir yetishmovchiligida reanimatsiya o'tkazish. Yurak nuqsonlarida hamshira parvarishi. Bolalarda o'tkir yurak va qon tomir yetishmovchiligida reanimatsiya o'tkazish. Hamshira tashxisi va taktikasi. Bolalarda siydik ajratish va ovqat hazm qilish a'zolari og'ir kritik holatlarida intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko'rsatish xususiyatlari. Bolalarda jigar hamda buyrak yetishmovchiligida reanimatsiyasi va intensiv terapiya chora tadbirlari va hamshira taktikasi. Bolalarda operatsiyadan keyingi og'riqsizlantirish.

2.9. Modul. Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariyasi asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI.

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: elektron doska, slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom va boshqa jihozlar. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar. Laboratoriyada foydalanadigan turli jihozlar, analizatorlar, apparaturalar.

4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI.

4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-xukuqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2018 yil PQ 4063-sonli "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.

6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining meyoriy hujjatlari.

4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Aripov M., Begalov V., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. Toshkent. Noshir, 2009 y.
2. Zakirova F. "Informatika i informatsionniye texnologii" T. Aloqachi, 2007g.
3. Irgashev SH.B. "Valeologicheskiye prinsipi ratsionalnogo pitaniya". Tashkent
4. Irgashev SH.B., "Meditinskaya Valeologiya". Toshkent- 2012
5. "Infektsionniye bolezni s kursom VICH infektsii i epidemiologii"
6. "VICH – infektsiya" Pod redaktsiyey AN RUz Daminova.T.A Tashkent– 2010.
7. "Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun o'quv dasturi" qo'llanma. -2014y
8. "O'zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigiyenik normativlari". O'zR SanQvaM № 0365 -19
9. "Tibbiy anjom-asboblari va buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va meyorlari". SanQvaM № 0342/17- 10 yanvar 2017 yil.
10. YU.Allayorov YU.Tojiboyev "Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.Darslik.Toshkent 2009 yil.
11. V.N.Turakulov F.A.Qurbonov "Anesteziologiya va reanimatsiyada hamshiralik parvarishi" o'quv qo'llanma 2019 y.
12. U.G'.Shomirzayeva, Q.B.Boltayev "Umumiy anesteziologiya va Reanimatologiya dan qo'llanma" Toshkent 2019 y.
13. T.YU. Umarova va boshq."Xamshiralik ishi" Toshkent-2005
15. YE.Donald. Djon YE"Neftrologiya" Moskva 2011 y.
16. Muxin N. A.Meditsina, osnovannaya na dokazatelstvax "Sovershenstvovaniye nefrologicheskoy pomoshchi v regione na osnove monitoringa zabolevayemosti i evolyusii bolezney pochek u detey" Moskva. 2017 g.
17. A. Zemchenkov "Tempi progressirovaniya xronicheskoy bolezni pochek i svoeyevremennost nachala dializa" Klinicheskoye potrebnosti nefrologii v laboratornix issledovaniyax Moskva 2014g.
18. F.Akilov, A.Gadoyev "Buyrak kasalliklari" Toshkent "Turon zamin ziyo" 2016y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. G.G.Jdanov. A.P.Zilber."Reanimatsiya i intensivnaya terapiya" Uchebnik.
2. B.N.Jukov. P.N.Mishensev "Reanimatologiya" Uchebnik
3. A.Z.Manevich A.D.Ploxoy "Intesivnaya terapiya, reanimatologiya, anesteziologiya" Uchebnik.

4.3.3. Elektron ta'lim resurslari

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

www.medi.ru

www.medlinks.ru

www.medscape.com

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga kuyiladigan talablar,o'tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya UzR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugi 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini kayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va kunikmalarini baxolash tugrisidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.